

**Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Zootsiyeneriya fakulteti “Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko‘paytirish” kafedrasida assistenti L.A. Xo‘janova tomonidan Zootsiyeneriya fakulteti I bosqich 60811500- Zootsiyeneriya (turlar bo‘yicha) yo‘nalishi 107-108 guruh talabalariga Genetika va biotexnologiya fanidan “Xususiy genetikasi” mavzusida tayyorlangan ma‘ruza mashg‘ulot ishlanmasiga**

## **TAQRIZ**

L.A. Xo‘janova tomonidan Zootsiyeneriya fakulteti I-bosqich 107-108-guruh talabalariga Genetika va biotexnologiya fanidan “Xususiy genetikasi” mavzusida tayyorlangan ma‘ruza mashg‘ulot ishlanmasida kavshovchi yirik va mayda tuyoqli hayvonlar, cho‘chqalar, parrandalar genetikasi va ularning xo‘jalik belgilarining naslga berilishi, kariotiplari, qon guruhlari va tizimlari haqida ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Ayniqsa ularning sifat va miqdor belgilari, kariotipining buzilish holatlari, Chorva hayvonlaridagi texnologik seleksiyon belgilarni yanada takomillashtirish bo‘yicha ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Ta‘lim berish shaklini jamoaviy tashkillashtirgan bo‘lib, muammoli tizim uni hal etish yo‘llari, yangi import va eksport loyixalari haqida munozarali usullardan foydalangan.

L.A. Xo‘janova ma‘ruza ishlanmani fanning ishchi dasturiga va ish rejasiga moslab tuzgan. Ma‘ruza mashg‘ulotining maqsadi, uslubiy ko‘rsatmalar, nazorat va test savollari to‘g‘ri qo‘yilgan.

Xulosa qilib aytganda, ma‘ruza mashg‘ulot ishlanmasi uslubiy jihatdan to‘g‘ri yozilgan. U o‘zining hajmi, shakli, mazmun va mohiyati, ma‘ruza masalalarining yoritilishi bilan bugungi kun talabiga javob beradi.

**Zootsiyeneriya fakulteti “Yaylov chorvachiligi, qorako‘lchilik, asalarichilik va ipakchilik” kafedrasida mudiri q.x.f.n.**

**R.R. Ro‘zimurodov**

**Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Zootsiyeneriya fakulteti “Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko‘paytirish” kafedrasida assistenti L.A. Xo‘janova tomonidan Zootsiyeneriya fakulteti I kurs 60811500- Zootsiyeneriya (turlar bo‘yicha) yo‘nalishi 107-108 guruh talabalariga Genetika va biotexnologiya fanidan “Xususiy genetikasi” mavzusida tayyorlangan ma‘ruza mashg‘ulot ishlanmasiga**

## **TAQRIZ**

L.A. Xo‘janova tomonidan Zootsiyeneriya (baliqchilik) yo‘nalishi I-bosqich 108-guruh talabalariga Genetika va biotexnologiya fanidan “Xususiy genetikasi va evolyusion ta‘limot” ma‘ruza mashg‘ulot ishlanmasi tayyorlangan. Ma‘ruza mashg‘ulot ishlanmasi Zootsiyeneriya (baliqchilik) yo‘nalishi I -bosqich talabari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quv dasturi va ishchi rejaga mos keladi. Ma‘ruza mashg‘ulot ishlanmasi uslubiy jihatdan to‘g‘ri yozilgan, unda mavzuga oid bo‘lgan ilmiy ma‘lumotlar to‘liq yoritilgan. Bundan tashqari ma‘ruza mashg‘ulot ishlanmasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan bo‘lib, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, matnning oxirida nazorat va test savollar berilgan.

Mashg‘ulot materiallari ko‘proq talabalarni bir-birini eshitishga, fikrlashga, xulosa va tavsiyalarini asoslashga undaydi. Ma‘ruza matnida xususiy genetikani takomillashtirishda naslchilik ishini to‘g‘ri olib boriish, texnologik jarayonlarni takomillashtirish, sut va go‘sht maxsuldorligini oshirish, podani qayta to‘ldirish, hayvonlar sog‘lig‘i, ekologik sharoitga moslashish jarayonlari haqida ma‘lumotlar berilgan.

Umuman olganda, ma‘ruza mashg‘ulot o‘zining mazmuni va mohiyati, shakli, hajmi yozilish tartibi bilan qo‘yilgan talablarga to‘liq javob beradi.

**SamDU Biologiya fakulteti**  
**Genetika va biotexnologiya kafedrasida**  
**b.f.d professor**

**Z.F. Ismoilov**